



## **XALQ DEPUTATLARI SURXONDARYO VILOYATI ANGOR TUMAN KENGASHINING QARORI**

190200, Angor q, Al-Hakim at-Termiziy ko'chasi 58-uy, tel.: 0(376) 31-22-012, faks: 0(376) 31-22-012

2022 йил «26» июль

VI-51-141-8-109-K/22

Ангор туман ҳокимлиги

**Mahalliy byudjet daromadlari bajarilishi holati, qo'shimcha rezervlarni aniqlash bo'yicha qilingan ishlar, shuningdek soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar kesimida byudjetga hisoblangan va amalda to'langanligi, ular bo'yicha soliq qarzdorligi yuzasidan Angor tuman tuman Davlat soliq inspeksiyasi boshlig'ining hisoboti to'g'riida**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 13 dekabrda "Mahalliy davlat organlarining moliyaviy erkinligini oshirish, mahalliy byudjetlarga tushumlarning to'liqligini ta'minlash bo'yicha soliq va moliya organlari javobgarligini kuchaytirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5283-sonli Farmonida belgilangan mahalliy byudjet daromadlari bajarilishi holati, ular tomonidan qo'shimcha rezervlarni aniqlash bo'yicha qilingan ishlar, shuningdek, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar kesimida byudjetga hisoblangan va amalda to'langanligi, ular bo'yicha soliq qarzdorligi to'g'risida tuman davlat soliq inspeksiyasi boshlig'i O.Murotovning hisoboti yuzasidan xalq deputatlari Angor tuman Kengashi

### **QAROR QILADI:**

1. Mahalliy byudjet daromadlari bajarilishi holati, qo'shimcha rezervlarni aniqlash bo'yicha qilingan ishlar, shuningdek soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar kesimida byudjetga hisoblangan va amalda to'langanligi, ular bo'yicha soliq qarzdorligi yuzasidan tuman Davlat soliq inspeksiyasi boshlig'i O.Murotovning hisoboti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari (O.Mamayusupov), tuman davlat soliq inspeksiyasi (O.Murotov), tuman moliya bo'limi (S.Qo'chqorov), tegishli korxonalar va tashkilotlar bilan birgalikda:

davlat soliq siyosatini amalga oshirish va soliq qonunchiligiga, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning to'g'ri hisoblanishiga, to'liq va o'z vaqtida to'lanishiga rioya qilinishi yuzasidan ta'sirchan nazoratni ta'minlash;

soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga hamda boshqa qonun hujjatlariga muvofiq Davlat byudjetiga, davlat maqsadli jamg'armalariga va byudjetdan tashqari jamg'armalarga to'liq miqdorda tushishini ta'minlash;

soliq to'lovchilarga ko'rsatiladigan axborot-maslahat xizmatlari va interaktiv xizmatlar sohasini kengaytirish, soliq sohasidagi qonun buzilishlarining oldini olish, aniqlash va ularga barham berish bo'yicha kompleks tadbirlarni amalga oshirish;

pul mablag'larining noqonuniy aylanishi manbalariga barham berish, aholi bilan pullik hisob-kitoblarni amalga oshiruvchi yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan naqd pul tushumlarining o'z vaqtida va to'liq topshirilishi yuzasidan tizimli nazoratni ta'minlash;

bozorlar va savdo komplekslarining moliyaviy-xo'jalik faoliyati, ular tomonidan soliq qonunchiligiga rioya etilishi yuzasidan qat'iy nazoratni amalga oshirish vazifalari yuklatilsin.

3.Xalq deputatlari tuman Kengashi deputatlariga aholisi o'rtasida 2022 yil uchun hisoblangan yer va mol-mulk soliqlarini o'z vaqtdan kechiktirmasdan to'lash lozimligi bo'yicha keng miqiyosida tushuntirishlar va tavsiyalar berish vazifasi topshirilsin.

4. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo'yicha doimiy komissiya raisi R.Kobulova zimmasiga yuklatilsin.

5. Mazkur qaror qabul qilingan kundan kuchga kiradi.

Hokim



SH.B.ABDULLAYEV